

MAKTABGACHA YOSHDAGI ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR NUTQINI SAHNALASHTIRILGAN O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING SAMARASI

M. Kodirov

Nizomiy nomidagi TDPU «Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim» fakulteti o'quv ishlari
bo'yicha dekan o'rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15185621>

Annotatsiya. Mazkur maqolada teartlashtirilgan o'yin vositasida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqni rivojlantirish mazmuni yoritiladi. Sahnalashtirilgan o'yin vositasida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqni rivojlantirish usullari ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: Sahnalashtirilgan o'yin, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar, nutq, rivojlantirish, faoliyat, shaxs.

ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА С ПОМОЩЬЮ ПОСТАНОВОЧНЫХ ИГРОВ

Аннотация. В данной статье рассмотрено содержание развития речи у слабослышащих детей дошкольного возраста в условиях театрализованной игры.

Раскрываются методы развития речи у слабослышащих детей дошкольного возраста в условиях театрализованной игры.

Ключевые слова: театрализованная игра, слабослышащие дети дошкольного возраста, речь, развитие, деятельность, личность.

THE EFFECT OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL-AGE HEARING- IMPAIRED CHILDREN THROUGH STAGED GAMES

Abstract. This article will cover the content of speech development in preschool-aged children with weak hearing in a theorized means of play. In the theorized play tool reveals the development of speech in children with impaired hearing in preschool age.

Keywords: theatrical game, weak-minded preschool children, speech, development, activity, personality.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning Sahnalashtirilgan faoliyati – yangi pedagogik tushuncha bo'lib, tadqiqotchi N.A. Vetlugina Sahnalashtirilgan o'yinlarning estetik va baddiyligi bolalarning ijodiy tasavvurlarini rivojlartirishini ta'kidlaydi. L.V. Artemeva, L.V. Voroshnina, L.S. Vigotskiy, R.I. Jukovskaya, N.S. Karpinskaya, A.N. Leontev va boshqa olimlar Sahnalashtirilgan faoliyatni shaxsning tashabbuskorlik, tasavvurning mumtaqilligi, voqea va hodisalardagi o'ziga hos hodisalarni aniqlash olish kabi sifatlarni rivojlantirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar.

Sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyati va o'ziga xosligi, badiiy obrazni his etilishi, anglanishi va uni shaxsga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Teatr – bolalar egallashi mumkin bo'lgan san'at turlaridan biri hisoblanib, pedagogik va psixologiyada mavjud quyidagilar bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi:

- bolalarning badiiy ta'limi va tarbiyasi bilan;
- estetik didni shakllantirish;
- ahloqiy tarbiya;
- shaxsning kommunikativ sifatlarini rivojlanishi;
- irodani tarbiyalash, xotira, tasavvur, tashabbuskorlik, fantaziya va nutqni rivojlantirish;
- ijobiy hissiy muhitni yaratilishi, bosimni yo'qotilishi, o'yin orqali ziddiyatli vaziyatlarni hal etilishi.

Sahnalashtirilgan faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlari juda keng. Bu bolaning ijodiy faolligini ochish, shaxsni ijodiy yo'nalisha tarbiyalash imkonini beradi. Bolalar atrof olamdagi qiziqarli g'oyalarni aniqlashga, ularni o'zlarining badiiy obrazlariga tabdiiq etishga, o'zlarining badiiy obrazlarini yaratishga o'rganadilar, ularda ijodiy tasavvur, assotsiativ tafakkur, noodatiy va o'ziga xos narsalarni ko'ra olishni rivojlantiradi. Sahnalashtirilgan o'yin – bolalarning badiiy didini shakllantiruvchi yorqin hissiy vositalaridan biridir. Jamoaviy sahnalashtirilgan faoliyat bola shaxsiga to'liq ta'sir etishga qaratilgan, uni qo'llab quvvatlashga, mustaqil ijod qilishga, yetakchi psixik jarayonlarini rivojlantirilishiga qaratilgan bo'lib, u shaxsni o'z o'zini anglashi va o'zini namoyon qilishga xizmat qiladi, ijtimoiylashuviga, ijtimoiy moslashuviga sharoit yaratadi, kommunikativ malakalarini rivojlantiradi, qoniqish, quvonish, muvoffaqiyat hislarini anglashga yordam beradi.

Sahnalashtirilgan o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy estetik tarbiyalash mumkin. Sahnalashtirilgan faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni ishtimoyilashtirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida badiiy asar yoki xalq og'zaki ijodi asarlari va ularni ijro etish orqali bolalar bir hancha ijobiy ahloqiy va estetik sifatlarini egallashadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarda bolalarning hissiy rivojlanishi amalga oshadi: bolalar asar qahramonlarining ichki kechinmalari, kayfiyatlari bilan tanishadi, ularni aks ettirishni

o'zlashtiriladi, u yoki bu kayfiyatning sabablarini anglashadi. Sahnalashtirilgan o'yinlarni nutqni rivojlantirishdagi(dialogik va monologik nutqini, nutqning ifodaliligini takomillashtirish) ahamiyati juda katta. Shuningdek, Sahnalashtirilgan o'yin bolani o'z-o'zini namoyon qilish va o'zini ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok eta turib zaif eshituvchi bolalar atrof olam, tovushlarning bo'yoqdorligi bilan obrazlar orqali tanishadi, uddaburonlik bilan qo'yilgan muammolar bolalarni o'ylashga, fikrlashga, tahlil qilishga, xulosalar chiqarish va

umumlashtirishag bo'rgatadi. Nutq aqliy rivojlanish bilan uzviy bog'liq. Sahnalashtirilgan o'yinlar jarayonida bolaning lug'ati sezilarsiz faollashadi, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar bartaraf etiladi, tovushlarni talaffuz qilish takomillashadi, nutqning ohangdorligi ortadi. Bolalar tomonidan ijro etilayotgan rol, aytiladigan nutq, bola oldiga uni ravon, tushunarli, aniq ifodalash zaruratini qo'yadi. Bu bolaning dialogik nutqini, uni grammatik qurilishini yaxshilaydi.

Sahnalashtirilgan faoliyat bolaning his tuyg'ulari, ichki kechinmalarini rivojlantirish manbayi hisoblanadi. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolaning hissiy sohasini rivojlantiradi, uni personajlar bilan hamnafas bo'lishga olib keladi. Sahnalashtirilgan o'yinlar shuningdek, hulk atvordagi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, chunki, maktabgacha yoshdagi har qanday badiiy asar yoki ertak doimo ahloqiy yo'nalishda bo'ladi. Sevimli qahramonlari esa, bolalarga taqlid qilishlari uchun namuna bo'ladi. Aynan, bolaning shu sevimli qahramoni obrazga nisbatan taqlid qilishi, unda shaxs sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari Sahnalashtirilgan faoliyat bolaga bevosita qaysidir personaj shaxsi yordamida ko'pgina muammolarni hal etish imkonini beradi. Bu qo'rqqoqlik, o'z kuchiga ishonmaslik, uyatchanlikni bartaraf etishga yordam beradi.

Hamkorlikdagi Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati - hamkorlikning antiqa turidir. Unda barcha barobar: bola, pedagog, onalar, otalar, buvi va bobolar. Kattalar bilan o'ynay turib, bolalar muloqotning qimmatli ko'nikmalarini egallashadi. Sahnalashtirilgan faoliyat bolalar bog'chasida bolalarni o'qitishning tashkiliy tizimiga kirmaydi. Pedagoglar asosan, ulardan bayram ertaliklarini tashkil etishda va bolalarning ijodiy faolligini oshirish uchun foydalanishadi. Kundalik hayotda esa, ular tizimsiz, qisqa, o'z hohishlariga ko'ra guruhda qiziqarli biror bir narsa qilish uchun tashkil etiladi. Ba'zi pedagoglar sahnalashtirilgan o'yinlar umuman foydalanishmaydi. Shunga qaramasdan faoliyatning bu turi o'zida qator ta'limiy, nutqiy, ijtimoiy, estetik muammolarni hal etishga, bolalarni bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qodir. **Bilish sohasini rivojlantirishda:**

- Voqelik haqidagi tasavvurlarni har tomolama rivojlantiradi
- hayvonlarning hatti harakatlari, tabiat hodisalarini kuzatish
- Sahnalashtirilgan o'yinlar bilan qurish yasash faoliyati aloqadorligini ta'minlash fazoviy tasavvurlar, ijodiy faollii, intellektual tashabbuskorlikni rivojlanishini ta'minlaydi;
- xotirani, boy tasavvurni rivojlantiradi, ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatini rejalashtirishni o'rgatadi.

Ijtimoiy rivojlantirish sohasida:

- bolalar bilan hamkorlikda ishlashda o'zaro ijobiy hissiy munosabatlarni shakllantiradi;
- kattalar va bolalarda madaniyatni anglashni tarbiyalash
- jamiyatda mavjud ahloqiy qonun va qoidalarga mos ravishda muloqot qilish malaklarini

rivojlantiradi;

- hislarni rivojlantirish

Nutqiy sohani rivojlantirishda:

- monologik va dialogik nutqni rivojlantirishda
- lugʻatini boyitish: obrazli ifoda, taqqoslash, sinonimlar, antonimlar.
- muloqotning ifoda vositalarini oʻzlashtirish

Estetik sohani rivojlantirishda:

- badiiy adabiyot bilan muloqot qilish
- badiiy obrazni tavsiflash asosida yotuvchi tasavvur shakllarini rivojlantiradi;
- oʻzlarini dizaynerlik faoliyatini kostyumlar elementlarini, dekoratsiyalar, atribularni

modellashtirishda oʻzlashtirishadi

- ifodali badiiy obrazni yaratish
- loyihali tasavvur, ijodiy mantiq, natijani oldindan koʻra bilish asosida fazoviy tasavvur

rivojlantiriladi.

- koʻp figurali syujetli kompozitsiyalarni yaratishda jamoaviy ishlarni tashkil etish.
- tasvirlash usullari, vositalarini mustaqil topishga oʻrgatish.

Harakat sohasini rivojlantirishda:

- harakatlar va unga qoʻshilib keladigan nutqning muvofiqlashtirish.
- ijodiy harakatlarga kayfiyat, xarakterni singdira olishni va obrazni rivojlantirish
- etyudlarda, asosiy harakat turlarini ifodali ijro etishda musiqali harakatli improvizatsiyalar bilan qoʻllab quvvatlash.

Sahnalashtirilgan faoliyat boʻyicha mashgʻulotlar mazmuni oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- Qoʻgʻirchoq teatrlarini tomosha qilish va shu asosida suhbatlashish;
- Drammalashtirilgan oʻyinlar;
- Bolalarni ijtimoiy hissiy sohasini rivojlantirish uchun mashqlar;
- Korreksion-rivojlantiruvchi oʻyinlar; diksiya ustida ishlash mashqlari (artikulyatsion

gimnastika);

- Nutqning ohangdorligini rivojlantirish uchun topshiriqlar;
- Biror narsaga aylanish oʻyinlari («oʻz tanangni boshqarishni oʻrgan»), obrazli mashqlar;
- Bolalar plastikasini rivojlantirish mashqlari;
- Ritmik daqiqalar (logoritmika);

- Qoʻgʻirchoqlarni erkin boshqarish uchun zarur qoʻl motorikalarini rivojlantiruvchi barmoqli oʻyinli treninglar;

- Ifodali mimika, pantomimika sanʼati elementlarini rivojlantiruvchi mashqlar;

- Sahnalashtirilgan etyudlar;
- drammalashtirish vaqtidagi madaniyat bo'yicha alohida mashqlar;
- Turli xil ertaklar va sahnalarni ijro etish uchun tayyorgarlik (repetitsiyalar) va ularni ijro etish;

-Nafaqat ertak matni bilan, balki, uni drammalashtirish vositalari – imo ishoralari, mimikasi, harakatlari, kostyumlari, sahna bezaklari(dekoratsiyalari) va boshqalar bilan ham tanishish.

Sahnalashtirilgan faoliyatning nutqni rivojlantirish bo'yicha vazifalari

O'rta guruh.

Bolalarning lug'atini boyitish va faollashtirish. Sahna qahramonlari, predmetlar, dekoratsiyalarni aniqlash va turgan joyini aytishni, sahna personajlarining kayfiyati va hissiy holatini tavsiflab berishga o'rgatish. Unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

So'z va so'z birikmalrini aniq talaffuzini takomillashtirish. Nutqning ifodaliligi va ohangini shakllantirish. Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati jarayonida bolalarning dialogoik nutqini rivojlantirish.

Katta guruh.

Bolalar lug'atini boyitish va faollashtirishni davom ettirish, nutqda ot, sifat, fe'l, ravish, son, olmoshlardan foydalanish, barcha tovushlarni to'g'ri talaffuzini mustahkamlash. Nutqning intonatsion ifodaliliginitakmillashtirish. Bolalarni ertaklarni sahnalashtirishda to'g'ridan to'g'ri va vositali nutqdan foydalanishga o'rgatishni davom ettirish. Dialogik va monologik nutq va unish shakllarini rivojlantirish. Kattlar yordamisiz ertaklarni bog'lanishli va ifodali so'zlab berish malakasini takomillashtirish.

Tayyorlov guruhi.

Bolalar lug'atini faollashtirish va aniqlashtirini davom ettirish. Lug'at boyligini predmet nomi, harakati, belgilari nomi bilan kengaytirish. Barcha tovushlarning to'g'ri talaffuzini mustahkamlash, diksiya va nutqning intonatsion ifodaliligi ustida ishlashni davom ettirish.

Nutqning dialogoik va monologik shakllarini takomillashtirish. Nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalash. Bolalar tomonidan Sahnalashtirilgan o'yinlarni muvoffaqiyatli o'zlashtirishlari, nutqni takomillashtirishlarning asosiy shartlaridan biri, ota-onalar va tarbiyachining hamkorligi hisoblanadi. Nutqning rivojlanishi bolaning tafakkuri va tasavurini shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Asta-sekin shakllanib boradigan sodda, ammo, mazmunan qiziqarli hikoyalarni tuzish, grammatik va fonetik jihatdan gaplarni to'g'ri tuzish malakasi monologik nutqni egallashga xizmat qiladi va shu bilan bir qatorda bolani maktab ta'limiga to'laqonli tayyorlash uchun muhim ahamiyat qasb etadi.

Shuningdek, maktabgacha yosh davrida bolalarning lugʻat boyligi asta- sekin kengayib boradi, ammo, uning sifatli boʻlishi uchun bevosita kattalarning ishtiroki talab etiladi.

Shunga koʻra, quyidagicha xulosa qilish mumkin, Sahnalashtirilgan oʻyinlarni nutqni rivojlantirishda kuchli , lekin , majburiy boʻlmagan pedagogik vosita qoʻllash imkonini beradi, chunki, bola oʻyin davomida oʻzini mustaqil va erkin sezadi.

REFERENCES

1. Указ Президента Республики Узбекистан УП-5368 от 5 марта 2018 года “О мерах покоренному совершенствованию системы государственного управления в области физической культуры и спорта”, (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. 5368 “On measures to radically improve the system of public administration in the field of physical culture and sports”. Toshkent. March 5, 2018)
2. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Ташкент – 2018 – 314 с. (Physical condition of students. Toshkent 2018-314 p)
3. Антонова Я.Б. Социально-педагогические условия, необходимые для организации внеклассной физкультурно-спортивной работы в общеобразовательной школе. //Теория и практика физической культуры. 2008 - №3. с.(Socio-pedagogical conditions necessary for the organization of extracurricular physical education and sport work in a comprehensive school. Theory and practice of physical education. 2008 - №3. p.)
4. Алексеенко Т.И. Возрастные показатели функционального состояния
5. координаторной системы современных подростков. //Теория и практика
6. физической культуры. 2007. №2. С. 64-66.(Age indicators of the functional state of the
7. respiratory system of modern adolescents. Theory and practice of physical education. 2007. №2. P. 64-66.)
8. Ачилов А.М., Акрамов Ж.А., Гончарова О.В. Ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. Ўқув қўллама. Тошкент, 2009. – 204 с.(Nurturing the physical qualities of students. Study guide. Tashkent, 2009. – 204 p)
9. Громыко В.В. Лысова И.А. Шубина Г.Л. Инновационный подход к физическому и
10. духовному воспитанию школьников. //Теория и практика физической культуры. 2007 №2 С. 60-63.(Innovative approach to physical and spiritual educated schoolchildren. Theory and practice of physical education. 2007 №2 P. 60-63)
11. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар , «Zar galam», Т. -2004 –
12. 3346.(Scientific research in the field of sport. Dice pen.Т. -2004 – 334 p)
13. Tulenova X.B. 5-7 yoshgacha boʻlgan maktabgacha taʼlim muassasalari bolalarining jismoniy tarbiyasini yaxshilash. Xulosa. diss. f.f.n. fanlar. T.2000-26 b.(Improving the

physical education of children in preschool institutions aged 5-7. Conclusion. diss. p.f.c. fans. T.2000- 26 c)

14. Хамидилла А.М. Средства и методы совершенствования физической подготовленности детей младшего школьного возраста на основе повышенной двигательной активности Автореф.дис...канд.пед.наук., М. 1988-20с.
15. Усманходжаев Т.С., Ханкельдиев Ш.Х., Абдуллаев А.А. ва бошк. Мактабгача
16. ешдагилар соглом турмуш тарзи жисмоний маданиятда гимнастика ва массаж.
17. Услубий кулланма. Фаргона-2011- 140 б.
18. Усманходжаев Т.С., Мелиев Х., Нуриддинова М., Олимов А. Мактабгача таълим муассасаларида жисмоний тарбия . Укув-услубий кулланма. Тошкент-Чирчик 2019- 159 б.